

INVESTOR VA DAVLAT O'RTASIDAGI MUOSABAT VA NIZOLARNI HAL
QILISH ISLOHOTLARI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7830697>

Bekmurodov Ixtiyor Komil o'g'li

Toshkent Davlat Yuridik Universiteti Xususiy huquq fakulteti 3-bosqich talabasi.

Email: Bekmurodovixtiyor411@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu tahliliy maqola orqali hozirgi vaqtda investor hamda davlat o'rtasida yuzaga keladigan huquqiy nizolarni hal qilish uchun qo'llaniladigan huquqiy uslublar hamda nizolarga yechim berish usullari haqida fikr olib boriladi, shu bilan bir qatorda bugungi kundagi huquqiy manbalar jumladan, ichki qonunchiligimizdagi ba'zi bir tartib-qoidalarga nisbatan tavsiyaviy xarakterdagi o'zgartirish hamda takomillashtirish mazmuniga ega takliflar bayon etiladi.*

Kalit so'zlar: *Investor, Davlat, investor huquqlari, investitsiya, subyektlar, qonun, imkoniyatlar, majburiyatlar, maqsadli imtiyozlar.*

Abstract: *This analytical article discusses the legal methods used to resolve legal disputes between the investor and the state, as well as the legal sources of today, including some of our domestic legislation. Proposals with the content of changes and improvements of a recommendatory nature in relation to certain procedures are presented.*

Key words: *Investor, State, investor rights, investment, subjects, law, opportunities, obligations, targeted benefits.*

Bugungi kunda dunyo iqtisodiyoti jadal tarzda o'sib bormoqda hamda shu bilan bir qatorda ushbu omil ko'plab mamlakatlarning rivojlanishini uchun bir debocha desak mubolag'a bo'lmaydi albatta. Shiddat ila rivojlanayotgan hamda kundan kunga murakkablashib borayotgan huquqiy munosabatlarni yetarli darajada shaffof va adolati tarzda huquqiy tartibga birlamchi vazifa sanaladi. Investitsiya huquqiy munosabatlarning tub zaminida xalqaro ommaviy huquq asoslari mavjud bo'lsada, ushbu huquq instituti asosan o'zida xalqaro xususiy huquq belgilarini namoyish etganligi sababli subyektlar orasidagi masalalar xalqaro xususiy huquq normalari hamda qonunchiligi bilan tartibga solish o'rinli hisoblanadi. Hozirgi davrda dunyo iqtisodiyotini hamda uning rivojlanish tendensiyasini investor deb atalmish subyekt ishtirokisiz tasavvur qilish bir muncha muhkul albatta. Negaki, iqtisodiyotning rivojlanishi uchun asosiy turtki bu sarmoya va kapitallar ya'ni investitsiyadir. Investor tijoriy maqsadni ko'zlagan holda o'z mablag'larini biron bir biznesga loyihasi kirgizishga hamda shu yo'l orqali o'z kapitalizatsiyasini va moliyaviy barqarorligini oshirishga harakat qiladi. Ammo bundan harakatlar tavakkalchilikka asoslanganligini inobatga oladigan bo'lsak, investor investitsiya qilishda avvalo huquqlari ta'minlanishini hamda

adolatli tarzda bo'lishi istaydi. Bu esa o'z o'zidan investitsiya kiritilayotgan hududdagi davlat uchun qaysidir ma'noda majburiyat yuklaydi. Ammo davlatlar bundan vaziyatlarga jiddiy, adolatli hamda sovuqqonlik bilan yondashmogi lozim. Negaki investor uchun daromad, davlat uchun esa sarmoya jalb qilish juda muhim hisoblanadi. Tangani ikkinchi tarafi bo'lganidek, investor va davlat o'rtasida munosabatlarda ham turli xil sabablarga ko'ra muammolar hamda nizolar vujudga kelib turadi. Bunday holatlarni huquqiy tartibga solish masalasiga to'xtaladigan bo'lsak, jumladan, xalqaro qonunchilikda turli xil konvensiyalar, xalqaro investitsiya shartnomalari mavjud bo'lib, davlatlar va jamiyatlar bunday manbalarni investitsiyaviy munosabatlarni tartibga soluvchi hamda subyektlarning huquq va majburiyatlarini belgilovchi asosiy norma sifatida qabul qilishgan. Ichki yurisdiksiyamizda investitsiya va investor faoliyatini tartibga solish maqsadida bir qator, jumladan 598-sonli „Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risidagi“ O'zbekiston Respublikasi qonuni², dunyoning bir qator mamlakatlari bilan investitsion munosabatlarni tartibga solish maqsadida tuzilgan 56ta BIT(Bilateral investment treaty)lar hamda shu kabi bir qator davlatlararo kelishuvlar mavjud bo'lib, ushbu qonun loyihalarining maqsadi va vazifasi yuqorida aytib o'tilganidek, investor hamda davlat o'rtasidagi nizo hamda muammolarni tartibga solishga qaratilgan. Ammo investor va davlat o'rtasidagi huquqiy munosabatlarda investor hisoblanuvchi subyektning o'zi ham ikki guruhga ya'ni horijiy va mahalliy investor sifatida ajratiladi. Investitsion muammolarda bir jihatga e'tibor qaratadigan bo'lsak, ushbu ikki turdagi investorlar uchun Hostage davlat tomonidan jumladan, O'zbekiston Respublikasi tomonidan horijiy investorlarga nisbatan mahalliy investorlarga qaraganda ko'proq miqdorda imtiyozlar hamda huquqlar beriladi desak noto'g'ri bo'lmaydi. 598-sonli „Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risidagi“ O'zbekiston Respublikasi qonunining 19-moddasi 2-qismiga ko'ra horijiy investorlarga nisbatan, ular O'zbekiston Respublikasiga investitsiya kiritish jarayonida qonunchilik o'zgarishi natijasida investorning holatini yomonlashtirishi hamda uning imkoniyatining cheklanishiga olib keladigan bo'lsa, investitsiya amalda bolgan vaqtdagi qonunchilik keyingi 10(o'n) yil davomida investor uchun tadbiiq etiladi, ammo mahalliy investorlar uchun bunday holatda cheklanish mavjudligini ko'rishimiz mumkin,sh bilan bir qatorda „Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida“gi O'zbekiston Respublikasi qonuniga o'zgartirishlar kiritish haqidagi 3 qonunning 181-moddasiga binoan mahalliy investorlarga nisbatan yuqoridagi korinishdagi imtiyozlar muddati sifatida 3(uch)oy belgilangan. Xalqaro xususiy huquq odat munosabatlaridan anglashilgan ma'nolarga ko'ra, investitsiyaviy munosabatlarni tartibga solishda diskriminatsiya va shu kabi holatlar istisno qilinishi kerak. Yuqoridagi holatdan ko'rishimiz mumkinki, ichki yurisdiksiyamizda xalqaro prinsiplarga zid ma'no anglatuvchi normalar mavjud⁴. Keyingi navbatda investorlarning asosiy majburiyatlaridan biri hisoblangan soliq masalasiga to'xtaladigan bo'lsak. Horijiy investorlarni huquqlarini himoya qilish hamda ularga erkinlik yaratish maqsadida

xalqaro investitsiya huquqining ikki tomonlama soliqqa tortmaslik prinsipi asosida turli davlatlar bilan o'zaro kelishuvlar hamda shartnomalar tuziladi. Xalqaro huquqda ikki yoqlama soliqqa tortish masalasi yuzaga kelishiga sabab sifatida suverentitet prinsipi asos sifatida e'tirof etiladi, negaki ushbu prinsip davlatlarga, o'z ichki hududida eksklyuziv yurisdiksiya amalga oshirish huquqini beradi. Bu esa o'z-o'zidan horijiy investorlarga ikki hissa majburiyat yuklashi turgan gap. Bunday ko'rinisdagi nizolarni oldini olish maqsadida davlatlar tomonidan asosan ikki uslubdan foydalanish keng tarqalgan, bular: davlatlar o'rtasida soliq masalalarini hal qilishga qaratilgan o'zaro kelishuvlar hamda Hostage davlatning ichki qonunchiligini takomillashtirish va xalqaro qonun normalariga muvofiqlashtirish amaliyotidir.⁵ Investorlarga nisbatan soliq amaliyotini qo'llash tartibiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, O'zbekistonda horijiy hamda mahalliy investorlarning soliq amaliyoti O'zbekiston Respublikasi Soliq Qo'mitasi tomonidan amaliy, horijiy davlatlar bilan tuzilgan turli kelishuv hamda BIT(Bilateral investment treaty)lar, O'zbekiston Respublikasi soliq kodeksi, hamda bir qator qonunosti hujjatlari orqali nazariy jihatdan tartibga solinadi. Qonunchilikdan bizga malumki, O'zbekiston Respublikasi tomonidan tuzilgan xalqaro shartnoma hamda hujjatlar va ularda kelishilgan shartlar Respublikamizdagi ichki lokal hujjatlarga nisbatan yuqori huquqiy maqom ostida e'tirof etiladi. Jumladan, bir qator BIT(Bilateral investment treaty)lardagi, jumladan O'zbekiston va Turkiya, O'zbekiston va Janubiy Koreya⁶ davlatlari o'rtasidagi shartnomalardagi soliqqa tortish mazmunidagi moddalarida horij investorlari uchun qay darajada huquq va majburiyatlar berilayotganini ko'rishimiz mumkin. Keyingi navbatda Bugungi kunda O'zbekistonga investitsiya kiritish jarayonida shunchalik ko'p hujjatlar bilan ishlash, ularning har biri bilan alohida tanishib chiqish, investitsiya huquqni qo'llash jarayonidagi murakkabliklarning mavjudligi investorlarga ma'qul kelmayotgani aniq albatta. O'zbekiston Liberal Partiyasining so'zi bilan aytadigan bolsak: „Investor va davlat o'rtasidagi munosabatlardagi byurokratiya, sohadagi normativ-huquqiy hujjatlarning o'zgaruvchanligi, qonunlardagi havola normalarning ko'pligi investitsion muhitga salbiy ta'sir ko'rsatib, investorlarning ishonchsizligiga sabab bo'ladi.”⁷

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlar hamda fikrlardan xulosa qilgan holda, investitsion munosabatlarni tartibga soluvchi normalarga qisman o'zgartirishni taklif etishimiz mumkin. Jumladan:

1. Horijiy investorlar hamda mahalliy investorlarning huquqiy maqomini tenglashtirish, ichki qonunchilikni qisman adaptatsiya qilgan holda, mahalliy investorlarimizga horijiy investorlar uchun yaratiladigan erkinlik hamda huquqlarni taqdim etish. Bu orqali mahalliy investorlarni, investitsion munosabatlarga yanada ko'proq kapital bilan kirishishini, hamda buning provardida mahalliy investitsiya munosabatlarini rivojlantirish hamda kapitalizatsiya darajasini yuqori darajada oshirish mumkinligini birlamchi asos sifatida keltirishimiz mumkin.

2.Soliq munosabatlari bo'yicha, mahalliy investorlarga horijiy investorlarga taqdim etilgani kabi erkinliklar jumladan, ossonlashtirilgan soliq to'lash hamda uni tartibga solish tizimini takomillashtirish hamda soliq to'lash jarayonida yuzaga kelgan kamchiliklar hamda qarzdorlik holatlarida mahalliy investorga nisbatan keskin choralar qo'llash o'rniga, mahalliy investorning moliyaviy ahvolini yaxshilash va shu bilan bir qatorda soliq to'lash qobilyatini qayta tiklashga qaratilgan chora-tadbirlarni, agar zarur deb topilsa, ichki qonunchilikka tegishli tarzda o'zgartirish kiritishni taklif qilishimiz mumkin. Bu orqali biz, mahalliy investorlarda soliq va soliq to'lash bu aslida, investor uchun taqdim etilgan qulaylik ekanligini, soliq to'lash orqali davlat oldidagi majburiyatidan ozod bo'lishini anglashiga turti bergan bo'lamiz, zero bugungi kunda sir emaski, tijoriy faoliyat bilan shug'ullanadigan mahalliy investorlar soliq to'lash deganda majburlash hamda erkinliklariga putur yetqazuvchi huquq institutini tushunishadi.

3.Keyingi taklif sifatida O'zbekistonda investitsiya sohasidagi muammolarni barataraf etish, qulay investitsion muhit yaratish orqali yalpi ichki mahsulot hajmini oshirish, yangi ish o'rinlarini yaratish, yuqori qo'shilgan qiymatga ega bo'lgan mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish maqsadida investitsiya jarayoni bilan bog'liq amaldagi qonun va qonunosti hujjatlarni unifikatsiya qilish orqali yangi Investitsiya kodeksini ishlab chiqish va qabul qilish xozirgi kunning dolzarb vazifasi deb hisoblaydi. Shu maqsadda partiya milliy qonunchilik va xalqaro tajribani inobatga olgan holda mahalliy tadbirkorlar va investorlar uchun tushunarli bo'lgan yagona Investitsiya kodeksini ishlab chiqish va qabul qilish g'oyasini ilgari surish o'rinli bo'ladi. Investitsiya kodeksi O'zbekistonda investitsiya jarayonini tizimli tartibga soluvchi yagona, mukammal va investorlarning huquqlarini himoya qilishga qaratilgan hujjat bo'lishi lozim. Yaratilishi lozim bo'lgan investitsiya kodeksi asosida quyidagi vazifalarni taklif etish mumkin:

- Davlat investitsiya siyosatining muhim ustuvor yo'nalishlarini aniq belgilash;
- Qulay investitsion muhitni shakllantirish uchun davlat va mahalliy boshqaruv organlarining vazifalari va majburiyatlarini aniqlashtirish;
- Investitsiyalar, investorlar turlari va shakllarini aniq belgilash, investitsiya kiritish jarayonini hisobini yuritish tizimini joriy qilish;
- Investitsiya loyihalarini joylashtirishda hududlarning salohiyatini, xom-ashyo, mehnat resurslarini hisobga olgan holda taqsimlash tamoyiliga qat'iy rioya etish;
- Investitsiya kiritish jarayonida investorlarga yer uchastkalari, bo'sh binolar ajratish, muxandislik-kommunikatsiya tarmoqlariga ulanishi bilan bog'liq masalalarni aniqlashtirish;
- Investorlarga O'zbekistonda yashash huquqini berish bilan bog'liq masalarni aks ettirish;
- Mahsus iqtisodiy va kichik sanoat zonalari maqomini aniq belgilash;
- Valyuta operatsiyalaridagi ustuvorlik va erkinliklarni ko'zda tutish;

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Adizovna E. D. et al. SYSTEM OF LAND STRUCTURE DESIGN IN UZBEKISTAN AND ITS MAIN CONTENT //Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities. – 2023. – T. 11. – №. 3. – C. 155-161.
2. O'zbekiston Respublikasining „Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risidagi” 598-sonli qonuni (<https://lex.uz/docs/-4664142>).
3. Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi qonuniga o'zgartirishlar kiritish haqidagi 328-sonli O'zbekiston Respublikasi qonuni (<HTTPS://LEX.UZ/DOCS/-2006789>).
4. To'g'ridan-to'g'ri xususiy xorijiy investitsiyalarni jalb etishni rag'batlantirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida 3594-sonli prezident farmoni (<HTTPS://LEX.UZ/DOCS/-555778>)
5. Birlashgan millatlar tashkilotining taraqqiyot dasturi (<https://www.undp.org/uzbekistan>)
6. UNCTAD (<https://investmentpolicy.unctad.org/international-investment-agreements>)
7. UZLIDEP rasmi sayti (<https://uzlidep.uz/>)